



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC  
SOLUTIONS

KONSTITUTSIYA-MAMLAKATIMIZDA AMALGA  
OSHIRILAYOTGAN YANGILANISHLAR

**Alimova Diyora Alimjon qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti musiqiy ta'lim  
yo'nalishi 2-bosqich talabasi [dalimova708@gmail.com](mailto:dalimova708@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi, milliy qadriyatlarimiz, adolatli fuqarolik jamiyati, demokratik huquqiy davlat qurish, bozor munosabatlariga o'tish yo'llari, Konstitutsiyamizning bosh yo'nalishi-insonni va uning hayotini ulug'lash ekanligini, inson va uning hayoti, sha'ni, qadr qimmatini hamda boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishini yoritishga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** konstitutsiya, qadr-qimmat, erkinlik, huquq, burch, jamiyat.

**Abstract:** This article states that the adoption of the Constitution of Independent Uzbekistan, our national values, a just civil society, building a democratic state governed by the rule of law, the transition to market relations, the main direction of our Constitution is to glorify man and his life, liberty and other inalienable rights are devoted to illuminating the highest value.

**Keywords:** Constitution, dignity, freedom, law, duty, society

“Islohotlarimizni yangi Konstitutsiyaviy makonda yanada qat'iy davom ettiramiz”- prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiya kuni munosabati bilan yo'llagan tabrigida ustuvor vazifalarni sanab o'tdi. Konstitutsiyani bevosita qo'llash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va boshqa shular jumlasidandir. U davlat xizmatiga kirishda Konstitutsiya asoslari bo'yicha bilimlarni imtixonidan o'tkazishni taklif qildi.<sup>29</sup>

O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023 yil 30-aprel kuni yangi Konstitutsiyani qabul qilish bo'yicha referendumda ovoz berdi. Mamlakatimizda 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yoqlab ovoz berdi. Bu o'z navbatida, Bosh qomusimizda xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganidan yaqqol dalolatdir.

Konstitutsiya (lotincha «Constitution»-tuzilish, tuzuk) davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning

<sup>29</sup> Sh.M.Mirziyoyev “Konstitutsiyaviy sud O'zbekistonda konstitutsiyaviy qonuniylik holati muhokamasidan” 2023 yil 7-dekabr





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

o‘zaro munosabatlarini belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi XXVI bob olti bo‘lim 128-moddadan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tegishli taklif kiritilgandan keyin olti oy mobaynida Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar hamda tuzatishlar kiritish to‘g‘risida keng va har taraflama muhokamani hisobga olgan holda qonun qabul qilishi mumkin. Agar Oliy majli Konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida taklifni rad etsa, taklif bir yil o‘tgandan keyingiga qayta kiritilishi mumkin.<sup>30</sup>

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning avvalgi tahriri 1992 yil 8-dekabrda O‘zbekiston xalqi tomonidan “ vakolatli vakillari timsolida “, ya’ni parlament a’zolari O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashi deputatlari tomonidan qabul qilinganini bilamiz. Bundan farqli ravishda, mamlakatimiz asosiy qonunining yangi tahririni “ Yagona O‘zbekiston xalqi” bevosita umumxalq referendumida –to‘g‘ridan- to‘g‘ri ovoz beriah yo‘li bilan qabul qildi. Shu ma’noda, yangi tahrirdagi O‘zbekiston konstitutsiyasining haqiqiy muallifi xalqning o‘zidir. Fuqarolarning hohish –irodasi esa islohotlarning manbai va harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 7-moddasi birinchi bandida “Xalq davlat hokimiyatning birdan-bir manbai”, degan norma belgilab qo‘yilgan. Bu norma timsolida O‘zbekiston Respublikasida jahon miqyosida umum e’tirof etilgan xalq hokimiyatchiligi prinsipini, ya’ni xalq suverenitetning tashuvchisi va davlat hokimiyatining yagona manbai ekanligini anglatuvchi tamoib o‘rnatilga. 2017 yil xalq bilan yaqindan muloqot qilish, uning dardu tashvishini, xayotiy muammolarini samarali xal qilish bo‘yicha yangi tizim yaratilgan yil bo‘ldi, deb aytishga haqlimiz.<sup>31</sup>

Keyingi yillarda mamlakatimizda quyidagi prinsip va g‘oyalarni hayotga tatbiq etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilayotganini takidlash lozim. Hususan:

Birinchi, yangi O‘zbekiston-bu inson sha’ni qadr qimmat, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari oily qadriyat hisoblangan davlat bo‘ladi.

Ikkinchi, xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak;

Uchunchidan odamlar ertaga yo uzoq kelajakda emas, balki bugunoq o‘z hayotida ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rishni istaydi va shunday ekan, “odamlar tashvishi bilan yashash”, xalqimizning qonuniy talab-istaklari va hohish irodasini ro‘yobga chiqarish-davlat organlari faoliyatini baholashning eng muhim me‘zoniga aylanishi zarur.

To‘rtinchida, qonunning yagona manbai va muallifi xalq bo‘lishi kerak, barcha muhim qarorlar aholi ishtirokida, fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuv asosida qabul qilishi lozim.

Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi ayni milliy qadriyatlarimizni, adolatli fuqarolik jamiyati, demokratik huquqiy davlat qurish, bozor munosabatlariga o‘tish yo‘llarini belgilab berdi.

<sup>30</sup> O‘zbekiston Respublikasi “Konstitutsiyasi”ning 128-moddasi

<sup>31</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi Toshkent 2018 yil 5-bet





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

O'zbekiston Konstitutsiyasi huquqiy tizimimizning tayanch poydevoridir. Uning barcha qonunlarimiz uchun asos sifatida xizmat qilishi barchamizga ma'lum. Shu kunga qadar qabul qilingan qonunlar, qonun osti hujjatlari Konstitutsiyamizning ilg'or qoidalarimizning ifodasidir.

Konstitutsiyaning muqaddimasida O'zbekiston xalqi: inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalari sodiqligini tantanavor e'lon qilib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak ma'suliyatni anglagan holda tarixiy, milliy qadriyatlarimizga tayanib, shuningdek xalqaro huquq sohasidagi umum e'tibof etilgan prinsiplar asosida insonparvar demokratik huquqiy davlatni barpo etish maqsadida ushbu Konstitutsiyani qabul qilganligi e'tirof etilgan. Mustaqillik tufayli vujudga kelgan Qomusimiz bizga tilimizni, dinimizni, tariximizni, ma'naviyatimizni, inson huquqlarimizni qaytarib berdi va ularni o'zining hayotbaxsh normalarida mustahkamlab qo'ydi. Shu bilan birga u siyosiy qadriyatlarimizni-davlat hokimiyatini boshqarishdagi xalqning ishtirokini ta'minlab berdi.

Konstitutsiyaning ikkinchi bobi xalq hokimiyatchiligiga doir munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni o'z ichiga oladi. 7-modda "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai", deyiladi. Davlat hokimiyatining chinakam egasi O'zbekiston xalqi. O'zbekistonda davlat hokimiyati xalq manfaatini ko'zlab va Konstitutsiyamiz hamda qonunlarimiz vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi. O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylangan Oliy Majlis va Prezident ish olib borishi mumkin.

Konstitutsiyaning 32-moddasida O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega ekanliklari qonuniy ravishda belgilab qo'yildi. Ushbu normaga ko'ra fuqarolar o'z siyosiy faolliklarini saylovlar va referendumlarda ovoz berib, shuningdek davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan davlat hokimiyati ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etadilar.

Fuqarolarimizning Konstitutsiyaning 35-moddasida belgilab qo'yilgan vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murajaat qilish huquqini ta'minlash maqsadida murajaatlarni ommaviy uchrashuvlar orqali qabul qilish jarayoni keng miqyosda amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda fuqarolarimiz mansabdorlar oldiga emas, balki mansabdor shaxslarning o'zlari xalqimiz oldiga borib, mahallalarda, ular istiqomat qilayotgan hududlarda vujudga kelgan muammolarni yechimini topish, ularni ijobiy hal qilib berishmoqda.

Asosiy Qomusimizning 36-moddasidagi "Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli" yoki 53-moddasida mustahkam qo'yilgan "Xuquqiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir" degan normalari hayotga tatbiq etib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil institute o'z faoliyatini amalga oshirilmoqda.<sup>32</sup>

<sup>32</sup> Milliy tiklanishdan Milliy yuksalish sari "Yoshlar nashriyot uyi" 2019 yil





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Qomusimizning uchinchi bobida Konstitutsiya va qonunning ustunligi haqidagi norma o'z ifodasini topgan. Bu esa, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, yurtboshimiz tomonidan ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari, shuningdek jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish: qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish sohasidagi ustuvor yo'nalishlarning qonuniy ifodasidir.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millat, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdurlar. Mamlakat qonunlariga yoshidan, mansabidan qat'iy nazar barcha fuqaro bo'ysunishi shart. Jamiyatd bunga erishish uchun davlat idoralari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar o'z ish faoliyatida Konstitutsiya va qonunlarga amal qiladilar. O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning e'tirof etilgan umumiy maqomlari ustunligini tan oladilar. Birorta qonun ham, me'yoriy huquqiy hujjat ham Konstitutsiya va qonunlarga zid bo'lmasligi zarur.

Ma'lumki, huquqiy demokratik davlatning eng muhim shartlaridan biri shaxs manfaatlarining muhofaza qilishidir. Boshqacha qilib aytganda, davlat davlatligini ko'rsatmoqchi bo'lsa, fuqarolarini o'z muhofazasiga olishi zarur. Bosh qomusimizda ham inson, uning hayoti, erkin sha'ni, qadr-qimmatini oily qadriyat sifatida ulug'lanadi. O'zbekistonning yagona xalqi, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e'lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatligimizni namoyon qiladi.<sup>33</sup>

Xulosa qilib aytish mumkinki, davlatimizning bosh maqsadi, bu aynan Harakatlar strategiyasi ustuvor yo'nalishlarida belgilangan. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash, sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash, yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish, aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish, sog'liqni saqlas tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, bir so'z bilan aytganda "Harakatlar strategiyasidan- Taraqqiyot strategiyasi sari" degan tamoyil asosida "Inson jamiyat-davlat" degan yangi tamoyilni hayotga keng tatbiq qilishdan iborat.

<sup>33</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "O'zbekiston" toshkent 2023yil 3-bet





**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sh.M.Mirziyoyev “Konstitutsiyaviy sud O‘zbekistonda konstitutsiyaviy qonuniylik holati muhokamasidan” 2023 yil 7-dekaabr
2. O‘zbekiston Respublikasi “Konstitutsiyasi”ning 128-moddasi
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi toshkent 2018 yil 5-bet
- 4.Milliy tiklanishdan Milliy yuksalish sari “Yoshlar nashriyot uyi” 2019 yil
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “O‘zbekiston” toshkent 2023yil 3-bet

